


QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish va samarali bandligini ta'minlashda xizmatlar sohasining har tomonlama rivojlanishi muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishni eng muhim vazifalardan biri sifatida qo'yishmoqda.

1-rasm

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi bo'yicha xizmatlarning asosiy turlari




Xizmatlar sohasi aholining barcha qatlamlarini qamrab oladi va jamiyatda sodir bo'layotgan deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi, bu esa mazkur masalaning qanchalik muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatib beradi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, mamlakat aholisining bandligini, daromadlarini va turmush sifatini oshirishning muhim yo'nalishlari va omillaridan biri sifatida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda mazkur soha muhim o'rinni egallamoqda.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining asosiy vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish jarayonida, 2016 yilda bozor xizmatlari hajmi 4619,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qarshi shahar 2392,3 mlrd. so'm (viloyat bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmiga nisbatan 52,0%), Shahrisabz tumani 357,2 mlrd. so'm (viloyat bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmiga nisbatan 8,0%), Koson tumani 251,6 mlrd. so'm (viloyat bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmiga nisbatan 5,0%) va boshqa tumanlarda (viloyat bo'yicha ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmiga nisbatan 2,0% dan 4% gacha) hissasiga to'g'ri keladi (2-jadval).

2016yilning hududlarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

(mlrds o'mda)




Tahlillar shuni ko'rsatadiki ko'rsatilgan xizmatlarning hududlar bo'yicha o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Qarshi shahrida (131,3%) ni tashkil qiladi va keying o'rinlarda Chiroqchi (128,5%), Kitob (124,5%) tumanlari peshqadamlar qatoridan joy egallashgan.

Hududlarda 2016 yilda ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati

(foizda)




2016 yilda aholi jonboshiga xizmatlar hajmi bo'yicha hududlar reytingi




2015-2016 yillarda alohida xizmat turlarining o'sish surati

(foizda)



2016 yilda savdo va boshqa xizmatlar hajmining o'zaro bog'liqligi



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi:**

K.Avloqulov